

Ilmiy bashorat qilishning ilmiy – falsafiy mohiyati va turlari

F.f.d, M.A.Qahhorov

Magistrant D.Talabova

Insoniyat hamisha kelajakni bashorat qilishga extiyoj sezgan va uni ertaga nima kutayotganini bilishni hohlaydi. Darhaqiqat, kelajagimiz bugunning davomi, bugunning maxsulidir. Uni o'zimiz yaratamiz, Bugun nafaqat oddiy odamlar xayotidam balki davlatlarning uzoq vaqtiga mo'ljallangan siyosati, uzoq muddatli ilmiy prognozlash juda ahamiyatlidi. Demak,ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar, mutaxassislar ilmiy prognozdan, samarali ilmiy bashorat qilish metodidan foydalanishni bilishlari zarur. Hozirgi zamon postindustrial axborot jamiyati jadal va ziddiyatli rivojlanayotgan bugungi kun sharoitida ilmiy prognoz qilish qonun – qoidalari qanday? O'yaymizki, ushbu mavzuning yoritilishi ko'pchilik uchun qiziqarli va foydali bo'lida. muhimdir. Mavzumizning dolzarbligi mana shundadir.

Ilmiy prognoz (bashorat) o'zi nima?

“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da berilishicha ilmiy bashorat va tabiat va jamiyatning ayni paytda no'malum, lekin kelajakda yuzaga kelishi yoki o'rganilishi mumkin bo'lgan voqea va xodisalarni ,jarayonlarni ilmiy qonuniyatlar asosida oldindan aytib berish ko'ra olish.Ilmiy bashorat ijodiy jarayon bo'lib, tabiat, jamiyat taraqqiyoti ob'ektiv qonunlarining fanda o'rganilgan asoslariga suyanadi.

(Qarang: O'zb.mil.enk. Toshket, 30 bet)

Ilmiy bashorat voqelik haqida to'plangan bilim va tajribalarga, voqelikning o'zgarishi va rivojlanishi qonuniyatlariga tayangan holda chiqarilgan, ilmiy jihatdan asoslangan xulosalardir.Bunday voqelikdagi zaruriy aloqadorlik, davriy o'zgarishlar hamda tasodifiy ehtimolliklar hisobga olinadi.Olimlar osmon yoritqichlarining davriy harakatlarini o'lchash natijasida Quyosh va oyning tutilishi vaqtlarini oldindan aytishgan,sayyoralarning harakatlanish jadvallarini tuzishgan (mil.av.585 y.yunon olimi Fales Quyosh tutilishini bashorat qilgan. Ulug'bek tuzgan jadvali esa osmon yoritqichlarining davriy harakatini aniq aks ettirgan). Ilmiy bashorat o'z mohiyatiga ko'ra, bir qancha turlarga bo'linadi.

Bularga dinamik va statistik qonuniyatlarga tayanib aytiladigan ilmiy bashoratlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Quyosh va Oy tutilishlarini oldindan aytib berish dinamik qonuniyatlarga tayanib aytiladigan ilmiy bashorat bo'lsa, meteorologik hodisalarni yoki demografik jarayonlarni prognozlash ilmiy bashorat qilishning 2-turiga kiradi. Ijtimoiy hodisalarning rivojlanish qonuniyatlariga tayanib jamiyat taraqqiyotining kelajagini, bashorat qilish ilmiy bashoratning 3-turidir. Ijtimoiy ilmiy bashoratni, o'z navbatida, iqtisodiy, demografik, siyosiy va boshqa turlarga ajratish mumkin. Ilmiy bashorat voqelikni, uning kelajagini oldindan bilib olishga imkon beradigan murakkab ilmiy bilish shakli hisoblanadi.

Ilmiy bashorat prognozlar va fanda prognoz qilish bilan chambarchas bog'liq. "Prognoz" tushunchasi grekcha "prognosis" atamasidan kelib chiqqan bo'lib, bashorat qilish, biror narsani oldindan ko'ra bilish degan ma'noni bildiradi.

Uzoq muddatli prognoz qilish davlat yoki mamlakatlar guruhini rejalashtirish va boshqarish bo'yicha strategic vazifalarni olis isteqbolga belgilaydi. Hozirgi globalistika davrida demografik jarayonlar, ekologik istiqbollarni umumbashariy miqyosdagi ijtimoiy hodisalarni global pragniz qilish haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Jumladan, 2002 yilning sentyabrida Janubiy Afrikaning Yoxannesburg shahrida BMT homiyligida sayyoramizdagi ekologik ahvolni yaqin 10 yilga prognoz qilish bo'yicha barcha davlatlarning sammiti bo'lib o'tdi.

Ilmiy bashorat – bilishning o'ziga xos shaklidir. O'tmish yoki bugungi kunning voqea xodisalari haqida ma'lumotlardan iborat oddiy bilimlardan farqli o'laroq ilmiy bashorat keiajakda sodir bo'lishi yoki kashf etilishi mumkin bo'lgan narsalar haqida axborotni ifoda etadi. Binobarin, u ehtimoliy xususiyatga egadir. Bu bilish ob'ekti – xali kelmagan kelajakning xususiyati bilan belgilanadi. Kundalik hayotiy tajribaga, sog'lom fikrga, hodisalarni oddiy kuzatishga yoki diniy e'tiqodga asoslangan diniy bashoratlar va empiric farazlardan farqli o'laroq ilmiy bashorat tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimni ob'ektiv, teran va har tomonlama taxlildan o'tkazishga asoslanadi.

Ilmiy bashorat bugungi kunda informatika va elektronika, global kompyuter tarmog'i va globalizasiya asri insoniyat oldiga qo'yayotgan ko'pgina

muammolarni hal qilishga qodir. Ilmiy bashoratva prognoz yordamida inson hayotiy faoliyati rivojlanishining nomaqbul, zararli, xavfli, boshi berk yo'nalishlarini oldindan aytib berish, shuningdek, ularni oqibatlarini yumshatish yoki to'liq bartaraf etish mumkin. Hodisalarni bashorat qilish, ularni ilmiy tushuntirish, xodisalarni teran aloqasi va mohiyatini ochib berish, ijtimoiy amaliyotga xizmat qilish qobilyati – bu fanning ijodiy, pragnostik imkoniyatlarining ko'rinishlaridir, zero, ilmiy bilishning asosiy vazifasi tabiiy va ijtimoiy muhitda insonga yo'l ko'rsatish va uni bu muxitga moslashishiga yordam berishdan iborat. Bashorat – bu odamlarning bilish va amaliy o'zgartirish faoliyati o'rtasida bog'lovchi bo'g'in, jamiyat hayotini tashkil qilish va boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bashorat bugungi kundan kelajakka, ma'lumdan noma'lumga yo'naltirilgan bo'lib, bu gneseologik noaniqlikni vujudga keltiradi, binobarin, ilmiy ijod jarayonida ilmiy bilish va prognoz qilish amalga oshiriladigan tizimlarning rivojlanish yo'llari prinsipial xilma xil bo'lishini nazarda tutadi. SHuning uchun ham bashorat ilmiy bilishda kelajakni mutlaqo aniq bilishni davo qilmaydi. H.M.Rasulov “Ilmiy ijod metadalogiyasi” O'quv uslubiy qo'llanma. Termiz, 2013, 22 bet).

Ilmiy bashoratning ro'yobga chiqish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bu ilmiy prognoz qiluvchilar tafakkurining o'ziga xosligi, ularning ijodkor shaxs sifatidagi xususiyatlari yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ishlab chiqqan “bozorga o'tishning o'zbek modeli” demokratiya, bozor iqtisodiga o'tish va fuqorolik jamiyati qurish sharoitlarida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini teran ijodiy ilmiy bashorat qilishning yorqin namunasidir. Bu model iqtisod, sotsiologiya politalogiya, ijtimoiy prognoz soxasidagi jahonga mashxur mutaxassislarning olqishiga sazovor bo'ldi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, ilmiy bashorat qilish nazariy tadqiqot metodologiyasi sifatida ham ilmiy, ham amaliy metodiga bog'liq. Ilmiy tadqiqotning manashu nazariy usulidan kengroq miqiyosda foydalanish

mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy, ma'naviy rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi.